


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2023-yil yanvar-dekabr oylarida)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati, foizda



2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar 7 771 tani 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda 3 106 taga kamayganligini ko'rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 4 923 taga, oilaviy korxonalar 2 535 taga kamaygan.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida


| | |
|-------------------|-----|
| Nurobod t. | 388 |
| Pastdarg‘om t. | 328 |
| Samarqand t. | 313 |
| Kattaqo‘rg‘on t. | 286 |
| Bulung‘ur t. | 202 |
| Oqdaryo t. | 180 |
| Urgut t. | 180 |
| Payariq t. | 136 |
| Jomboy t. | 130 |
| Ishtixon t. | 124 |
| Samarqand sh. | 115 |
| Paxtachi t. | 114 |
| Qo‘shrabot t. | 113 |
| Narpay t. | 104 |
| Toyloq t. | 69 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 15 |



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura




Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 1 217 |
| Urgut t. | 836 |
| Samarqand t. | 616 |
| Pastdarg‘om t. | 482 |
| Ishtixon t. | 358 |
| Kattaqo‘rg‘on t. | 339 |
| Toyloq t. | 308 |
| Jomboy t. | 305 |
| Oqdaryo t. | 265 |
| Bulung‘ur t. | 259 |
| Kattaqo‘rg‘on sh. | 253 |
| Payariq t. | 245 |
| Paxtachi t. | 192 |
| Narpay t. | 177 |
| Qo‘shrabot t. | 158 |
| Nurobod t. | 141 |



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So‘nggi uch yil ichida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o‘zgarish sur‘ati 76,4 foizni tashkil etgan.


Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 3,6 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 0,9 foizini suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 813 |
| Payariq t. | 223 |
| Pastdarg'om t. | 199 |
| Urgut t. | 162 |
| Samarqand t. | 137 |
| Oqdaryo t. | 124 |
| Toyloq t. | 120 |
| Kattaqo'rg'on t. | 116 |
| Jomboy t. | 111 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 109 |
| Ishtixon t. | 93 |
| Narpay t. | 69 |
| Qo'shrabot t. | 68 |
| Paxtachi t. | 68 |
| Nurobod t. | 60 |
| Bulung'ur t. | 58 |



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 59,3 foizni tashkil etgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,0 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 24,7 foizni tashkil etdi.

404

Fuqarolik
obyektlarini qurish




626

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

1 500

Bino va
inshootlar qurish



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 4 460 |
| Samarqand t. | 1 377 |
| Pastdarg'om t. | 1 322 |
| Urg'ut t. | 1 095 |
| Ishtixon t. | 877 |
| Payariq t. | 871 |
| Toyloq t. | 775 |
| Oqdaryo t. | 765 |
| Kattaqo'rg'on t. | 765 |
| Bulung'ur t. | 758 |
| Jomboy t. | 679 |
| Narpay t. | 670 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 554 |
| Paxtachi t. | 525 |
| Qo'shrabot t. | 432 |
| Nurobod t. | 334 |



Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 16 219 tasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 72,0 foizni tashkil etgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 17,8 foizni tashkil etgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,2 foizni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Shahar va tumanlar kesimida

| | |
|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 412 |
| Samarqand t. | 68 |
| Toyloq t. | 65 |
| Urgut t. | 59 |
| Payariq t. | 47 |
| Oqdaryo t. | 45 |
| Ishtixon t. | 45 |
| Pastdarg'om t. | 45 |
| Nurobod t. | 45 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 40 |
| Jomboy t. | 40 |
| Bulung'ur t. | 26 |
| Kattaqo'rg'on t. | 25 |
| Narpay t. | 24 |
| Paxtachi t. | 17 |
| Qo'shrabot t. | 13 |



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 910 ta yoki 89,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:


- 97,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,0 foizni tashkil etdi;
- yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,6 foizini tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Shahar va tumanlar kesimida


| | |
|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 1 323 |
| Samarqand t. | 261 |
| Urgut t. | 208 |
| Pastdarg'om t. | 167 |
| Payariq t. | 161 |
| Kattaqo'rg'on t. | 157 |
| Toyloq t. | 150 |
| Jomboy t. | 144 |
| Ishtixon t. | 139 |
| Oqdaryo t. | 135 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 116 |
| Bulung'ur t. | 114 |
| Narpay t. | 110 |
| Qo'shrabot t. | 70 |
| Nurobod t. | 70 |
| Paxtachi t. | 49 |



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 374 tani tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


-yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 12,7 foiz ulushini mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar tashkil etmoqda;

-87,3 foiz ulushini esa oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar tashkil etmoqda.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida jamiga nisbatan ulushi




Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlarining viloyatga nisbatan ulushi Samarqand shahrida (28,4 foiz), Samarqand (8,4 foiz), Urgut (7,8 foiz) va Pastdarg'om (7,5 foiz) tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Yillar kesimida soni


Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'mmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat


jamiga nisbatan ulushi




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 2023-yilning mos davriga nisbatan 1 094 taga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Tumanlar kesimida


| | | | |
|------------------|-------|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 1 866 | Urgut t. | 421 |
| Samarqand t. | 904 | Bulung'ur t. | 358 |
| Pastdarg'om t. | 831 | Oqdaryo t. | 321 |
| Payariq t. | 675 | Narpay t. | 319 |
| Kattaqo'rg'on t. | 516 | Kattaqo'rg'on sh. | 132 |
| Toyloq t. | 477 | Paxtachi t. | 127 |
| Urgut t. | 437 | Qo'shrabot t. | 103 |
| Jomboy t. | 427 | Nurobod t. | 50 |

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot


2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'mon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 37 598 ta tijorat korxonalar va tashkilotlarining 23 523 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Tumanlar kesimida


| | | | |
|------------------|-------|-------------------|-------|
| Samarqand sh. | 7 962 | Kattaqo'rg'on sh. | 1 022 |
| Samarqand t. | 1 958 | Nurobod t. | 986 |
| Urgut t. | 1 823 | Jomboy t. | 879 |
| Pastdarg'om t. | 1 408 | Toyloq t. | 821 |
| Kattaqo'rg'on t. | 1 103 | Ishtixon t. | 776 |
| Payariq t. | 1 061 | Qo'shrabot t. | 668 |
| Oqdaryo t. | 1 033 | Paxtachi t. | 576 |
| Bulung'ur t. | 1 026 | Narpay t. | 421 |

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 66,8 foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida


| | | | |
|----------------|-----|-------------------|-----|
| Samarqand sh. | 816 | Jomboy t. | 275 |
| Urgut t. | 643 | Samarqand t. | 270 |
| Ishtixon t. | 619 | Kattaqo'rg'on t. | 238 |
| Pastdarg'om t. | 549 | Bulung'ur t. | 200 |
| Narpay t. | 504 | Nurobod t. | 141 |
| Toyloq t. | 422 | Kattaqo'rg'on sh. | 125 |
| Paxtachi t. | 365 | Qo'shrabot t. | 120 |
| Oqdaryo t. | 320 | Payariq t. | 105 |

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korporatsiya va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra,


Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida


jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'mon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Shahar va tumanlar kesimida

| | | | |
|-------------------|-----|------------------|----|
| Samarqand sh. | 263 | Bulung'ur t. | 17 |
| Urgut t. | 43 | Ishtixon t. | 15 |
| Jomboy t. | 33 | Kattaqo'rg'on t. | 15 |
| Samarqand t. | 30 | Payariq t. | 13 |
| Oqdaryo t. | 27 | Nurobod t. | 12 |
| Pastdarg'om t. | 27 | Toyloq t. | 11 |
| Qo'shrabot t. | 19 | Paxtachi t. | 9 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 17 | Narpay t. | 5 |

Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 306 tasi qo'shma korxonalar, 250 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Xitoy Xalq Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Qozog'iston Respublikasi



Turkiya Respublikasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

| | Jami | shundan: | |
|--------------------|------|--------------------|--------------------|
| | | qo'shma korxonalar | xorijiy korxonalar |
| Samarqand viloyati | 556 | 306 | 250 |
| Samarqand sh. | 263 | 118 | 145 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 17 | 12 | 5 |
| tumanlar | | | |
| Oqdaryo | 27 | 14 | 13 |
| Bulung'ur | 17 | 9 | 8 |
| Jomboy | 33 | 22 | 11 |
| Ishtixon | 15 | 10 | 5 |
| Kattaqo'rg'on | 15 | 9 | 6 |
| Qo'shrabot | 19 | 7 | 12 |
| Narpay | 5 | 3 | 2 |
| Payariq | 13 | 5 | 8 |
| Pastdarg'om | 27 | 19 | 8 |
| Paxtachi | 9 | 6 | 3 |
| Samarqand | 30 | 21 | 9 |
| Nurobod | 12 | 8 | 4 |
| Urgut | 43 | 35 | 8 |
| Toyloq | 11 | 8 | 3 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Samarqand shahrida 263 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 47,3 %), Urgut 43 ta (7,7 %), Jomboy 33 ta (6,0 %), Samarqand 30 ta (5,4 %), Oqdaryo 27 ta (4,8 %) ni tashkil etadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.